Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 008

O‘ZBEKISTONDA MILLIY BIOETIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING INTEGRATIV MODELI VA UNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Gulnoza Karimovna Mamajonova*
Namangan davlat texnika universiteti, falsafa fanlari bo‘yicha PhD, katta o‘qituvchi
✉ gulnozamamajonova85@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy bioetik madaniyatni institutsional rivojlantirish muammosi xorijiy tajriba va O‘zbekistonning ijtimoiy-madaniy sharoiti kesishmasida tahlil qilinadi. Bioetika faqat tibbiy amaliyotdagi axloqiy qoidalar majmui emas, balki shaxsiy qaror, tashkilot faoliyati, huquqiy tartibga solish, jamoatchilik muloqoti va ilmiy-texnologik innovatsiyalarni o‘zaro bog‘laydigan ko‘p darajali madaniy tizim sifatida talqin etiladi. Xitoy, Germaniya, Fransiya, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi va Rossiya tajribalarining ayrim jihatlari qiyosiy ko‘rib chiqilib, ularni tayyor shaklda ko‘chirish emas, balki milliy ehtiyojlarga mos elementlarini integratsiyalash zarurligi asoslanadi. O‘zbekiston uchun aksiologik asos, huquqiy-me’yoriy tizim, institutsional arxitektura, uzluksiz bioetika ta’limi, jamoatchilik muloqoti, mas’ul innovatsiya hamda monitoring va qayta aloqa bloklaridan iborat integrativ model taklif etiladi. Genom tadqiqotlari misolida xabardor rozilik, maxfiylik, oilaviy manfaat, ma’lumotlarning ikkilamchi ishlatilishi va uzoq muddatli nazorat kabi muammolar ushbu modelning amaliy ahamiyatini ko‘rsatishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar

bioetika, bioetik madaniyat, institutsionallashuv, milliy model, etika qo‘mitasi, xabardor rozilik, genom ma’lumotlari, oilaviy avtonomiya, mas’ul innovatsiya, monitoring.

DOI: 10.5281/zenodo.23281636

KIRISH

Biotibbiyot, genomika, reproduktiv texnologiyalar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatlarining kengayishi tibbiyot va ilm-fanning axloqiy chegaralarini yanada murakkablashtirmoqda. Zamonaviy bioetik muammo endi faqat “nima qilish mumkin?” degan savol bilan cheklanmaydi. U “qanday sharoitda?”, “kimning roziligi bilan?”, “kimning manfaatiga?”, “xavf va foyda qanday taqsimlanadi?” hamda “qaror oqibati uchun kim javobgar?” kabi savollarni birgalikda qo‘yishni talab qiladi. Shu sabab bioetik madaniyatni individual shifokor yoki tadqiqotchining axloqiy fazilatlari bilan chegaralash yetarli emas. Uning barqaror ishlashi uchun huquqiy, ta’limiy, institutsional va jamoatchilik mexanizmlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak.

Bioetikaning xalqaro rivojlanishi bir tomondan umumiy tamoyillarning shakllanganini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan bu tamoyillarning turli jamiyatlarda bir xil mazmunda amalga oshmasligini namoyon etadi. Inson qadr-qimmati, xabardor rozilik, zarar yetkazmaslik, adolat va maxfiylik ko‘plab bioetik tizimlarda umumiy mezon sifatida qabul qilinadi. Biroq shaxs va oila munosabati, hayot oxiridagi qaror, reproduktiv tanlov, biologik ma’lumotlarning maqomi yoki yangi texnologiyalarga ruxsat berish masalalarida milliy madaniyat, din, huquqiy an’ana va ijtimoiy ishonch muhim rol o‘ynaydi. UNESCO bioetika va inson huquqlarini o‘zaro bog‘lab, individual xabardor rozilikni asosiy prinsip sifatida belgilaydi [1, B. 117]. WHOning inson genom ma’lumotlariga oid yangi tavsiyalarida esa rozilikning imkon qadar aniq va maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi, ma’lumotlar hayot sikli davomida shaxs, oila va jamoa qadriyatlari hisobga olinishi ta’kidlanadi [2, B. 5].

Mazkur maqolaning maqsadi xorijiy bioetik tajribalarni qiyosiy tahlil qilish asosida O‘zbekiston uchun milliy bioetik madaniyatning institutsional rivojlanish yo‘nalishlarini konseptual jihatdan asoslashdir. Tadqiqotda tayyor xorijiy modelni tanlash emas, balki turli tizimlarning O‘zbekiston sharoitida samarali ishlashi mumkin bo‘lgan elementlarini bir-biri bilan bog‘lash tamoyili ustuvor deb olinadi.

Bioetik madaniyatni faqat bioetika bo‘yicha bilim miqdori bilan o‘lchash uning ijtimoiy mohiyatini toraytiradi. Shaxsiy darajada u insonning murakkab biotibbiy vaziyatda axloqiy muammoni ko‘ra olishi, dalillarni qadriyatlar bilan solishtirishi va qaror oqibatini anglashida namoyon bo‘ladi. Institutsional darajada esa muassasaning ichki tartibi, etika qo‘mitasi faoliyati, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, ma’lumotlarni himoya qilish va shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy darajada bioetik madaniyat qonunchilik, davlat siyosati, professional standartlar, ta’lim va jamoatchilik muloqotini bir tizimga bog‘laydi.

Shu nuqtayi nazardan bioetik institutsionallashuvning vazifasi axloqiy masalani hujjat bilan “yopish” emas. Uning mazmuni qarorlarni dalillarga, inson qadr-qimmatiga va adolat mezoniga muvofiq muhokama qilish uchun barqaror protseduralar yaratishdan iborat. Etik ekspertizaning ortiqcha rasmiyatchilikka aylanishi esa aksincha, muammoning mazmuniy tahlilini zaiflashtirishi mumkin. Shuning uchun etika qo‘mitalari tarkibida tibbiyot, huquq, falsafa, ijtimoiy fanlar va jamoatchilik vakillarining ishtiroki muhimdir.

Xitoy bioetik tajribasida G‘arb bioetikasidagi individual avtonomiya konsepsiyasidan farqli ravishda oilaviy munosabatlar va konfutsiychilikka xos o‘zaro mas’uliyat sezilarli o‘rin tutadi. Shengyu Zhao palliativ yordam kontekstini tahlil qilib, G‘arb prinsipializmidagi individual avtonomiya bilan Xitoy kontekstidagi oilaviy avtonomiya o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi [3]. Hayot oxiridagi parvarish, og‘ir tashxisni ma’lum qilish yoki samarasiz davolashni davom ettirish kabi vaziyatlarda oila amaliy g‘amxo‘rlik va moddiy javobgarlikni ham o‘z zimmasiga olishi mumkin.

Biroq oilaviy maslahatni tan olish bemorning ovozini ikkinchi o‘ringa surish degani emas. Bioetik jihatdan maqbul modelda oila qaror jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi, lekin shaxsning xabardor roziligi va qadr-qimmati saqlanadi. UNESCOning rozilik tamoyili jamoa yoki oila roziligi individual rozilikning o‘rnini bosa olmasligini alohida ko‘rsatadi [1, B. 117]. O‘zbekiston uchun ham oilaviy g‘amxo‘rlikni shaxs avtonomiyasiga qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni munosabatli avtonomiya doirasida uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq.

Xitoy tajribasining ikkinchi ahamiyatli tomoni yuqori xavfli yangi biotibbiy texnologiyalarni xavf darajasiga ko‘ra farqlash va monitoringni faqat dastlabki ruxsat bilan cheklamaslikdir. Bunday yondashuvdan O‘zbekiston sharoitida yuqori xavfli tadqiqotlar uchun kuchaytirilgan etik ekspertiza va butun loyiha hayot sikli davomida nazorat mexanizmini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Xorijiy tajribalar bioetik boshqaruvda bitta universal tashkiliy shakl yo‘qligini ko‘rsatadi. Germaniya tajribasida milliy etika kengashining nisbatan mustaqil maqomi va turli ilmiy hamda ijtimoiy qarashlarni muhokamaga olib kirishi muhim. Fransiyada bioetik qonunchilikni qayta ko‘rib chiqishdan oldin jamoatchilik maslahatlaridan foydalanish normativ qarorning ijtimoiy legitimligini mustahkamlaydi. Janubiy Koreyada esa milliy organlar bilan universitet va tibbiyot muassasalaridagi etika qo‘mitalarini umumiy standartlar orqali muvofiqlashtirish tajribasi e’tiborga loyiq.

Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi doirasidagi yondashuvlarda texnologik innovatsiyaning oqibatlarini oldindan muhokama qilish, manfaatdor tomonlarni qaror jarayoniga jalb qilish va yangi dalillar paydo bo‘lganda qarorlarni qayta ko‘rib chiqish imkoniyati mas’ul innovatsiya konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi. O‘zbekiston uchun bu tajribalarning ahamiyati barcha institutlarni nusxalashda emas, balki mustaqil ekspertiza, ochiqlik, manfaatdor tomonlar ishtiroki va qayta aloqa mexanizmlarini milliy boshqaruv tizimiga mos tarzda mustahkamlashdadir.

Rossiya bioetikasi XX asr oxiridan boshlab falsafa, tibbiyot va huquq kesishmasida shakllangan ko‘p yo‘nalishli ilmiy maktab sifatida rivojlandi. I.T. Frolov va B.G. Yudin bioetika masalalarini inson, fan va biotexnologiyalar munosabatining keng ijtimoiy-falsafiy muammosi sifatida ko‘rishga hissa qo‘shdi. Keyingi tadqiqotlarda tibbiy axloq, bemor huquqlari, xabardor rozilik, etika qo‘mitalari, biopolitika va madaniy omillar chuqurroq ishlab chiqildi.

Ushbu tajribadan O‘zbekiston uchun olinadigan muhim xulosa shundaki, bioetik ekspertiza faqat tibbiyot yoki faqat huquq doirasida samarali ishlamaydi. Murakkab biotibbiy masalalarda falsafiy, huquqiy, klinik, iqtisodiy va ijtimoiy baholash bir-birini to‘ldirishi kerak. Shu bilan birga, etika qo‘mitalari faoliyati haddan tashqari hujjatbozlikka aylansa, mazmuniy axloqiy muhokama zaiflashadi. Demak, institutsionallashuvning o‘zi yetarli emas; ekspertlarning tayyorgarligi va qarorlar sifatini monitoring qilish ham zarur.

Genom tadqiqotlari bioetik institutsional tizimning real imkoniyatlarini sinovdan o‘tkazadigan eng murakkab yo‘nalishlardan biridir. Genetik ma’lumot insonning o‘zi bilangina cheklanmay, biologik qarindoshlar haqida ham ehtimoliy axborot beradi. Shu sabab uning maxfiyligi oddiy tibbiy ma’lumotdan ko‘ra kengroq oilaviy va ijtimoiy oqibatlarga ega. WHOning 2024-yilgi tavsiyalarida genom ma’lumotlarini yig‘ish, ulardan foydalanish va almashishda xabardor rozilik, shaffoflik, tenglik, ma’lumot xavfsizligi va ijtimoiy-madaniy kontekstga moslashish zarurligi qayd etilgan [2, B. 5].

O‘zbekiston doirasida milliy genom tadqiqotlari prenatal va neonatal skrining, irsiy kasalliklar bo‘yicha maslahat, farmakogenomika va profilaktik tibbiyot uchun muhim ilmiy resurs yaratishi mumkin. Biroq katta hajmdagi genetik ma’lumotlarni uzoq muddat saqlash, ikkilamchi tadqiqotlarda ishlatish, xorijiy hamkorlarga uzatish yoki tijoriy mahsulot yaratishda foydalanish maxsus bioetik nazoratni talab qiladi. Umumiy rozilik shakli bunday ko‘p bosqichli ma’lumot hayot siklining barcha holatlarini yetarli darajada qamrab olmasligi mumkin.

Shu sabab genom tadqiqotlari uchun rozilikning bosqichli yoki dinamik shakllari, ma’lumotlardan ikkilamchi foydalanish uchun qo‘shimcha xabardor qilish, qayta identifikatsiya xavfini baholash, ma’lumot almashinuvi ustidan institutsional nazorat va ishtirokchilar bilan uzluksiz kommunikatsiya mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda ilmiy manfaat bilan shaxsiy va oilaviy daxlsizlik o‘rtasidagi muvozanat asosiy mezon bo‘lib qoladi.

Qiyosiy tahlil O‘zbekiston uchun tayyor xorijiy modelni ko‘chirib olishdan ko‘ra, turli tajribalarning mos jihatlarini integratsiyalash samaraliroq ekanini ko‘rsatadi. Shu asosda milliy bioetik madaniyatni rivojlantirishning yetti tarkibiy blokdan iborat modeli taklif etiladi.

Birinchi blok - aksiologik asos. Unda inson qadr-qimmati, hayotning qadri, adolat, hamdardlik, oila mas’uliyati va ilmiy halollik milliy bioetik siyosatning qadriyaviy poydevorini tashkil etadi. Ikkinchi blok - huquqiy-me’yoriy tizim bo‘lib, xabardor rozilik, maxfiylik, biologik material va ma’lumotlardan foydalanish, manfaatlar to‘qnashuvi va yuqori xavfli tadqiqotlarning aniq me’yorlarini qamrab oladi.

Uchinchi blok - institutsional arxitektura. Milliy darajadagi maslahat va muvofiqlashtiruvchi organlar bilan tibbiyot muassasalari, universitetlar va ilmiy markazlardagi etika qo‘mitalari o‘rtasida vakolat va axborot almashinuvi mexanizmi shakllantirilishi zarur. To‘rtinchi blok - uzluksiz bioetika ta’limi. Bioetika faqat alohida fan sifatida emas, klinik va tadqiqot amaliyoti bilan bog‘langan kompetensiya sifatida bakalavriat, magistratura, doktorantura va malaka oshirish dasturlariga integratsiyalashishi kerak.

Beshinchi blok - jamoatchilik muloqoti. Genomika, reproduktiv texnologiya, organ transplantatsiyasi yoki sun’iy intellekt kabi mavzularda qarorlar faqat ekspertlar doirasida qolmasligi, fuqarolar va manfaatdor guruhlar bilan tushunarli tilda muhokama qilinishi zarur. Oltinchi blok - mas’ul innovatsiya. Yangi texnologiyaning ilmiy samarasi bilan birga uning ijtimoiy oqibatlari, tenglikka ta’siri va mumkin bo‘lgan suiiste’mol xavflari oldindan baholanishi kerak. Yettinchi blok - monitoring va qayta aloqa bo‘lib, qabul qilingan qoidalar va institutlarning real amaliyotda qanday ishlayotganini tekshirish, yangi muammolar paydo bo‘lganda ularni yangilash imkonini beradi.

Ushbu yetti blok bir-biridan alohida ishlamaydi. Huquqiy me’yor institut orqali amaliyotga kiradi, ta’lim mutaxassisning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi, jamoatchilik muloqoti esa tizimga bo‘lgan ishonchni shakllantiradi. Monitoring barcha bloklar o‘rtasidagi qayta aloqani ta’minlaydi. Shu ma’noda milliy bioetik madaniyat shaxsning axloqiy pozitsiyasi, tashkilotning kundalik amaliyoti va davlat siyosatini bir-biri bilan bog‘laydigan boshqaruv madaniyatidir.

XULOSA

Bioetik madaniyatni milliy darajada rivojlantirish xorijiy standartlarni qabul qilish yoki milliy qadriy-

atlarni ularga qarama-qarshi qo‘yishdan iborat emas. Zamonaviy biotibbiyot xalqaro hamkorlik, umumiy ilmiy me’yorlar va inson huquqlariga tayanadi. Shu bilan birga, axloqiy qarorlarning amaliy shakli har bir jamiyatning ijtimoiy aloqalari, huquqiy an’analari va qadriyaviy muhitiga bog‘liq. O‘zbekiston uchun maqbul model universal prinsiplar bilan milliy ijtimoiy-madaniy xususiyatlarni muvozanatlashga asoslanishi kerak.

Xitoy tajribasi oila va shaxs munosabatini, yuqori xavfli texnologiyalarni hayot sikli davomida kuzatish zaruratini ko‘rsatadi. Yevropa tajribalari mustaqil ekspertiza, jamoatchilik muloqoti va qarorlarni qayta ko‘rib chiqish mexanizmlarining ahamiyatini ochadi. Rossiya bioetik maktabi esa murakkab muammolarda transdisiplinar tahlil zarurligini namoyon etadi. Bularning har biri O‘zbekiston uchun tayyor nusxa emas, balki milliy tizimni shakllantirishda foydalanish mumkin bo‘lgan institutsional resursdir.

Taklif etilgan yetti blokli integrativ model bioetik madaniyatni shaxsiy, institutsional va milliy darajalarni bog‘laydigan tizim sifatida rivojlantirishga qaratilgan. Ayniqsa genom tadqiqotlari, reproduktiv texnologiyalar, sun’iy intellekt va boshqa yuqori xavfli innovatsiyalar kengayib borayotgan sharoitda xabardor rozilik, ma’lumotlar himoyasi, adolat, ekspertiza va monitoringni yagona institutsional mantiqqa birlashtirish zarur. Bioetik madaniyatning yetukligi texnologiyani qanchalik tez qabul qilish bilan emas, ilmiy taraqqiyotni inson qadr-qimmati va ijtimoiy mas’uliyat bilan qanchalik barqaror uyg‘unlashtirish bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. The UNESCO Universal Declaration on Bioethics and Human Rights: Background, Principles and Application. – Paris: UNESCO, 2009. – 370 p.

2. World Health Organization. Guidance for Human Genome Data Collection, Access, Use and Sharing. – Geneva: WHO, 2024. – 18 p.

3. Zhao S. Exploring Chinese Bioethics Through the Practice of Palliative Care: Master of Science by Research Thesis. – Bristol: University of Bristol, 2022.

4. Beauchamp T. L., Childress J. F. Principles of Biomedical Ethics. 8th ed. – New York: Oxford University Press, 2019.

5. World Health Organization. Ensuring Ethical Standards and Procedures for Research with Human Beings. – Geneva: WHO.

6. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. – Paris: UNESCO, 2005.

7. Council of Europe. Convention for the Protection of Human Rights and Dignity of the Human Being with regard to the Application of Biology and Medicine. – Oviedo, 1997.

8. CIOMS. International Ethical Guidelines for Health-related Research Involving Humans. – Geneva: Council for International Organizations of Medical Sciences, 2016.

9. Фролов И. Т., Юдин Б. Г. Этика науки: проблемы и дискуссии. – Москва: Политиздат, 1986.

10. Седова Н. Н. Биоэтика: учебник. – Москва: КноРус, 2016.